

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TOSHMATOVA MUNIRA SHAVKATOVNA

**G‘O‘ZANING *G.BARBADENSE* L. TURIGA MANSUB OILALARDA
CHIGITNING TUKLANISH XILI VA RANGINI AYRIM QIMMATLI
XO‘JALIK BELGILARI ORASIDAGI BOG‘LIQLIK NISBATLARI**

06.01.05-Seleksiya va urug‘chilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on agricultural
sciences**

Toshmatova Munira Shavkatovna

G‘o‘zaning *G. barbadense* L. turiga mansub oilalarda chigitning tuklanish xili va rangini ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari orasidagi bog‘liqlik nisbatlari..... 3

Тошматова Мунира Шавкатовна

Соотношение зависимости типа подпушка и окраски семян хлопчатника с некоторыми хозяйственно-ценными признаками у семей вида *G. barbadense* L..... 21

Toshmatova Munira Shavkatovna

The connection between seed fluff type and color, and of agronomic valuable traits in cotton varieties of *G. barbadense* L..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI
FANLARI BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.05/30.09.2022.Q x .152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TOSHMATOVA MUNIRA SHAVKATOVNA

**G‘O‘ZANING *G.BARBADENSE* L. TURIGA MANSUB OILALARDA
CHIGITNING TUKLANISH XILI VA RANGINI AYRIM QIMMATLI
XO‘JALIK BELGILARI ORASIDAGI BOG‘LIQLIK NISBATLARI**

06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Qx1757 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sabzavotilm.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamaraximov Bunyod Ikromovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, proffesor

Rasmiy opponentlar:

Ibrohimov Bahodir Akmal o‘g‘li

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Samanov Syrmuhammad Abdurasulovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

O‘simliklar genetik resurslari ilmiy - tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli ilmiy kengashning 2025yil «27» oktyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko‘ksaroy a/b SPEKITI. Tel.: (+99871) 226-85-03; faks: (+99871) 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sabzavotchilik, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№6/2025-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko‘ksaroy a/b SPEKITI. Tel.: (+99871) 226-85-03; faks: (+99871) 226-85-03;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.A.Nizomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d, professor

F.F.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

A.J.Shokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida yetishtiriladigan jami paxta tolasidan 20 foizi Xitoy, 18 foizi AQSh, 13 foizi Hindiston, 8 foizi Pokiston, 8 foizi MDH davlatlariga, shundan 5 foizi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Xalqaro Paxtachilik konsultativ komiteti (ICAC) tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha so‘nggi o‘n yillikda paxta tolasini yetishtirish hajmi 4% ga oshgan bo‘lsa-da, tola hosildorligi 1% ga kamaygan¹. Yer yuzida aholi sonining o‘shishi, sug‘oriladigan ekin maydonlarini cheklanib borayotganligi tufayli dunyo davlatlarining qishloq xo‘jaligida ekin maydonlarini kengaytirmasdan yuqori va sifatli hosil olish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyoda g‘o‘zadan yuqori hosil olishda AQSh, Xitoy, Hindiston olimlari tomonidan seleksiya uslublarini takomillashtirish, sifat belgilarini nazorat qiluvchi genlarning additiv samarasini, dominantlik darajasi va yo‘nalishini aniqlash orqali zamon talablariga javob beradigan yangi g‘o‘za navlarini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda paxtachilikni rivojlanishida erishilgan yutuqlarning aksariyati turichida duragaylash hisobiga erishilgan bo‘lib, ushbu uslubdan foydalangan holda bir qator g‘o‘za navlari yaratilgan. G‘o‘za seleksiyasida turichida duragaylashda sifat belgilaridan markyor sifatida foydalanish seleksiya jarayonini tezlashtirishga, shuningdek, yangi genetik o‘zgaruvchanliklar man‘bai bo‘lgan rekombinantlarni ajratish imkoniyatini beradi. Biroq, turichida duragaylashda markyor belgilardan foydalangan holda g‘o‘za seleksiyasi uchun qimmatli boshlang‘ich ashyolarni yaratish borasidagi izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, markyor belgi bo‘lgan turli chigit tuki rangiga ega tizmalar o‘rtasida chatishtirish o‘tkazish, chigit tuki rangi va qimmatli xo‘jalik belgilarini duragaylarda irsiylanishi va o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rganish, shuningdek, duragay o‘simliklaridan ijobiy belgilar majmuiga ega bo‘lgan rekombinantlarni ajratib olish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan². Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-yanvardagi 47-son “Ingichka tolali paxta yetishtirishni samarali tashkil qilish, yangi navlarni ko‘paytirish va rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V.«Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

¹www.ICAC.org.hk

²ПФ:LEXS.UZ.<https://lexs.uz>

³BM:LEXS.UZ.<https://lexs.uz>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. G'o'zaning *G.barbadense* L. turida turichida chatishtirish o'tkazish bo'yicha izlanishlar yetakchi xorijiy ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Texas universiteti, Xitoy qishloq xo'jaligi akademiyasiga qarashli Paxtachilik instituti, Hindiston Markaziy Paxtachilik instituti, Qozog'iston paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutida olib borilgan. Lekin, turli chigit tuki rangidan markyor sifatida foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borilmagan.

Respublikamizning genetik olimlari A.I.Avtonomov va boshqalar [12; s. 106-107], Taxani Xassan [39; s. 16-17], N.G.Simongulyan va boshqalar [38; 24-33-b., 115; s. 1286-1293], D.A.Musaev [82; s. 30-38, 83; s. 41-45, 84; s. 65-66, 85; s. 25], D.A.Musaev va boshqalar [86; s. 7-16, 87; s. 31-33], M.F.Abzalov [9; s. 20, 10; s. 8, 49; s. 26-36, 50; s. 47-49], Z.Usmanova [41; s. 157], M.S.Axmadjonova [14; 20-b.] tomonidan chigitning tuklanish darajasi o'rganilgan. O'zbekiston Milliy Universiteti va Genetika va O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlaridan D.A.Musaev va boshqalar [86; s. 7-16, 87; s. 31-33], M.F.Abzalov [9; s. 20, 10; s. 8, 49; s. 26-36, 50; s. 47-49] va boshqalar tomonidan chigitning tola qoplamini (tola va tuklar) genetik boshqarilishini o'rganish asosida yangi nazariya yaratilgan. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ITI olimlaridan S.Rahmonqulov [35; 3-27-b.], S.Rahmonqulov va boshqalar [101; 154-156-b.] chigit tuki rangi va chigit moydorligi o'rtasida bog'liqlik mavjudligini aniqlab, chigit tuki rangidan markyor sifatida foydalanish mumkinligini ta'kidlashgan. Shunday bo'lsa-da, chigit tuki rangining boshqa qimmatli xo'jalik belgilari bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar adabiyotlarda juda kam uchraydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining QX-A-QX-2018-201 «Hosildor, yuqori tola chiqimi va sifatiga, vertitsillez viltga, sho'rlanishga chidamli va keng genetik asosiga ega bo'lgan seleksiya tizmalarini qo'llash asosida yuqori moslashuvchan ingichka va o'rta tolali g'o'za navlarini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2020yy).

Tadqiqotning maqsadi ingichka tolali g'o'za duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarini o'zgaruvchanligini aniqlash va ularni chigitning tuklanish xili va rangiga bog'liqligini o'rganish va belgilarning ijobiy majmuiga ega bo'lgan oila va tizmani yaratish hamda boshlang'ich ashyo sifatida genetik-seleksion jarayonlarga tavsiya etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

F₄-F₅ ingichka tolali g'o'za duragaylarida morfologik va qimmatli xo'jalik belgilarning o'zgaruvchanligini aniqlash;

F₄- F₉ ingichka tolali g'o'za duragaylarida chigit tuklanish xili va rangi bo'yicha o'simliklarni bir-biridan morfologik hamda qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha farqlanishini aniqlash;

F₄-F₉ ingichka tolali g'o'za duragaylarida chigit tuklanish xili, rangi va xo'jalik qimmatli belgilari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish;

F₅-F₆ ingichka tolali g'o'za duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarining va chigit tuklanish xili va rangi bilan o'zaro korrelyatsiyasini aniqlash;

duragaylar o'simliklar orasidan tezpishar, serhosil, tola chiqimi va sifati ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan oilalar, ular asosida tizmalar yaratish va seleksion-genetik tadqiqot ishlariga tavsiya etish

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti «Sun'iy iqlim» laboratoriyasida yaratilgan o'simliklarda xar xil chigit tuklanish xili va rangiga ega bo'lgan T-52 tizma va ushbu tizmadan ajratilgan oilalar, andoza sifatida Surxon-14, Surxon-103 va 9871-I ingichka tolali g'o'za navlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti g'o'za o'simliklarida xar xil chigit tuklanish xili va rangiga ega bo'lgan F₄- F₉ duragay kombinatsiya va oilalarda qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi, o'zgaruvchanligi, avlodlarda shakllanishi va ular orasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishlari «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» nomli metodologik uslubiy qo'llanma asosida o'tkazilgan [2; b. 351]. Tolanig sifat ko'rsatkichlari «Sifat» markazi laboratoriyasida HVI tizimida, olingan natijalarning statistik tahlili B.A.Dospexov uslubida Microsoft Excel dasturidan foydalanilgan xolda tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor ingichka tolali g'o'zaning tizma va oilarida turli chigit tuklanish xili va rangiga ega bo'lgan o'simliklar guruxlarga ajratib o'rganilgan;

F₄-F₉ duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanligi va turli chigit tuklanish xili va rangiga ega bo'lgan o'simliklarda qimmatli xo'jalik belgilari orasida va chigit tuklanishi xili va rangiga bog'liqligi aniqlangan;

qimmatli xo'jalik belgilari orasida asosan ahamiyatsiz korrelyatsiya koeffitsienti aniqlanib, 2-guruhda chigitning tuklanish xili va rangi tola chiqimi va chigitning tuklanish xili va rangi 1000 dona chigit vazni o'rtasida mos ravishda salbiy va ijobiy kuchsiz darajada korrelyatsiya aniqlangan;

chigit tuklanish xili va rangiga qarab ekilgan o'simliklar guruhlarida, avval o'rganilgan barcha o'simliklar guruhlarida chigitning tuklanish xili va rangi bilan namoyon bo'lishi qayd etilib, o'simliklar guruhlaridagi o'simliklar soni ekish uchun tanlangan o'simliklar guruhlariga bog'liqligi isbotlangan;

qimmatli xo'jalik belgilarini yaxshilashda chigit tuklanish xili va rangidan markyor sifatida foydalanish orqali yakka tanlovlarni samaradorligini oshirish mumkinligi isbotlangan;

ingichka tolali g'o'zaning turli chigit tuklanish xili va rangiga ega bo'lgan o'simliklarni o'rganish asosida ijobiy belgilari bir genotipda jamlangan ashyolar ajratib olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingichka tolali g'o'zaning turli chigit tuklanish xili va rangiga ega bo'lgan o'simliklar asosida tezpishar, serhosil, tola chiqimi va sifati yuqori, qimmatli-xo'jalik belgilar majmuiga ega bo'lgan yangi duragaylar, oila va tizma olingan va boshlang'ich ashyo sifatida amaliy seleksiya jarayonlariga tavsiya etilgan;

yaratilgan T-52 ingichka tolali g'o'za tizmasida Surxondaryo viloyati bo'yicha kengaytirilishi hisobiga fermer xo'jaliklari tomonidan 4-8 s/ga qo'shimcha paxta hosili olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dala tajribalarining har yilgi aprobatsiyadan o'tkazilganligi va birlamchi hujjatlarning mavjudligi; nazariy va amaliy natijalarining bir-biriga mosligi; ilmiy tadqiqot natijalarining respublika, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy Attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi ilmiy nashrlarda chop etilganligi; olingan natijalarni zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda statistik tahlildan o'tkazilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati F₄-F₅ ingichka tolali g'ozda duragaylarida morfologik va qimmatli xo'jalik belgilarning o'zgaruvchanligi aniqlandi;

F₄-F₉ ingichka tolali g'ozda duragaylarida chigit tuklanish xili va rangi bo'yicha o'simliklarni bir-biridan morfologik hamda qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha farqlanishi taxlil qilindi;

F₄-F₉ ingichka tolali g'ozda duragaylarida chigit tuklanish xili, rangi va qimmatli xo'jalik belgilari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari aniqlandi;

F₅-F₆ ingichka tolali g'ozda duragaylar o'simliklarida qimmatli xo'jalik belgilarining, chigit tuklanish xili va rangi bilan o'zaro bog'liqligi aniqlandi;

belgilar o'rtasidagi o'zaro korrelyativ bog'liqliklar, qimmatli xo'jalik belgilarini yaxshilashda chigit tuklanish xili va rangidan markyor sifatida foydalanish orqali yakka tanlovlarni samaradorligini oshirish mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati g'ozaning tezpishar, genotipik jihatdan bir xil bo'lgan bir qator tizma va oilalar ajratib olinganligi va genetik-seleksion tadqiqotlarda dastlabki manba sifatida foydalanish mumkinligi amaliy

botlanganligi hamda ingichka tolali, yuqori tola chiqimiga va sifatiga ega bo'lgan tizma va oilalar yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mamlakatimiz paxtachiligi sohasini rivojlantirishda tezpishar va ekologik plastik g'ozda navlarini yaratish dolzarb Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'ozaning g.barbadense L. turiga mansub oilalarda chigitning tuklanish xili va rangini ayrim qimmatli xo'jalik belgilari orasidagi bog'liqlik nisbatlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

Mazkur tadqiqot ishlarida paxta seleksiyasi va urug'chiligi sohasi uchun muhim amaliy natijalarga erishilgan hamda oilalarni qimmatli xo'jalik belgi ko'rsatkichlari bo'yicha genetik-seleksion izlanishlarga boshlang'ich ashyo sifatida tavsiya etilgan.

Murakkab duragaylash uslublari yordamida olingan T-52 tizmasi asosida tezpisharligi 113-117 kun, hosildorligi 39-45 s/ga, tola chiqimi 37,7-39,0%, bitta ko'sakdagi paxta xom-ashyosi vazni 3,3-3,8 g, mikroneyr ko'rsatkichi 4,1-4,2, yuqori solishtirma uzunligi 1,35-1,40 dyuym bo'lgan (*Qishloq xo'jaligida bilik va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 12-sentabrdagi №05/04-04-556-son ma'lumotnomasi*). Natijada, genetik-seleksion izlanishlarda T-52 tizmaning seleksion genetik izlanishlarda markyor sifatida, yangi donorlar yaratish uchun tadqiqotlarda keng miqyosda foydalanish imkonini bergan.

Surxondaryo viloyati Angor tumani "O'ldon Iskandarova" fermer xo'jaligida 1,0 gektar maydonda yekilib, tajriba dalalarida sinovdan o'tkazilgan. O-2, O-3, O-7, O-9 va O-12 oilalarining hosildorligi 42-44 s/ga, tezpis'harligi 113-117 kunni, tola

chiqimi 37,8- 39,6 % ni, O-2, O-3, O-4, O-5, O-6, O-7 va O-8, O-13, O-14, O-15 ekilib, tajriba dalalarida sinovdan o'tkazilgan (*Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 12-sentabrdagi №05/04-04-556-son ma'lumotnomasi*). Natijada, hosildorligi paxta hosildorligi tizmalarda o'rtacha 38,4-47 s/ga ni tashkil etib, andoza Surxon-16 naviga nisbatan 3-11,6 s/ga yuqori hosil olingan, oilalar andozaga nisbatan 108-132 % ko'p paxta hosili to'plagan.

O-1, O-2, O-3, O-4, O-5, O-6, O-7, O-8, O-9, O-10, O-11, O-12, O-13, O-14 va O-15 oilalar chigitlari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti qoshidagi g'o'za genofondiga taqdim etilgan hamda o'rganilgan ingichka tolali ushbu oilalar PS-2025/7 dan PS -2025/20 gacha raqam bilan ro'yxatga olingan (*Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 12-sentabrdagi №05/04-04-556-son ma'lumotnomasi*). Natijada, bu manbalar madaniy g'o'za kolleksiyasi genofondini yanada boyitishda xizmat qiladi.

Tabiiy yuqori harorat sharoitida qimmatli xo'jalik belgilarning majmuasi bo'yicha ingichka tolali O-1, O-2, O-3, O-4, O-5, O-6, O-7, O-8, O-9, O-10, O-11, O-12, O-13, O-14 va O-15 g'o'za oilalari andoza Surxon-16 naviga nisbatan ustun bo'lgan (*Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 12-sentabrdagi №05/04-04-556-son ma'lumotnomasi*). Natijada, tola sifati I-I "A" tiplarga mansub tola beradigan, tezpishar, hosildor, tola sifati yuqori, yuqori hosildor, garmselga bardoshli bo'lgan g'o'za navlari borasidagi seleksion-genetik izlanishlarda boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi xaqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Qimmatli xo'jalik belgilarining g'o'za duragaylarida irsiylanishi**" va "**G'o'zaning qimmatli xo'jalik belgilari va ular orasidagi**

korrelyatsiya” deb nomlangan birinchi bobida ekolo-geografik uzoq namunalar bilan Respublikamiz va xorijda morfo-xo‘jalik belgilari bo‘yicha olib borilgan ishlarning tahlili va g‘o‘za seleksiyada asosiy qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi hamda korrelyatsion bog‘liqliklar bo‘yicha izlanishlar tahlillari keltirilgan. Adabiyotlar sharhida keltirilgan hamda tahlil qilingan ilmiy natijalar dissertatsiyadagi muammo yuzasidan kerakli va yetarli darajada ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Tajriba o‘tkaziladigan joy va sharoiti, tadqiqot manbai va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida olib borilgan tadqiqotlarning manbai va uning tavsiflari, tadqiqot o‘tkazish uslublari, tajriba olib borish joyi va sharoiti, laboratoriya va dala sharoitlarida olib borilgan izlanishlarni amalga oshirish borasidagi ishlar, tadqiqotlarda qo‘llanilgan seleksion va statistik uslublar kabi ma’lumotlar bayon etilgan. Tajribalar 2018-2024 yillarda Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalar ilmiy tadqiqot institutning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida joylashgan tajriba xo‘jaliklarida va Toshkent davlat agrar universitetida olib borildi.

Tajribada boshlang‘ich ashyosi sifatida g‘o‘zaning *G. barbadense L.* turiga mansub $F_9 (F_2 [F_4(F_8 (F_1 T-817 \times 010972) \times T-817) \times \text{Surxon-16}] \times (F_1 \text{Surxon-16} \times \text{Surxon-18}))$ bo‘g‘in duragay kombinatsiyasi ishtirok etdi. Shuningdek, tajribada andoza nav sifatida 9871-I, Surxon-14 va Surxon-103 navlaridan foydalanildi. Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiya ilmiy-tadqiqot institutining Marka ziy tajriba xo‘jaligi vilt bilan kuchli tabiiy zararlangan dalalarida olib borildi va boshlang‘ich ashyo sifatida 010972 yovoyi namuna, Surxon-16, Surxon-18 navlaridan va T-817 tizmasidan foydalanildi. Agrotexnik tadbirlar O‘zPITida ishlab chiqilib tasdiqlangan yagona agrotexnik uslubdan (2007) foydalangan holda o‘tkazildi. Tolaning sifat ko‘rsatkichlari “Sifat” sertifikatlash markazida HVI zamonaviy o‘lchov asbobida aniqlandi O‘rganilgan belgi ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlar tuzildi va olingan ma’lumotlar B.A.Dospexov [9; 416-b.] uslubida statistik ishlovdan o‘tkazildi. Ekologik barqarorlikni (gomeostatik koeffitsienti) aniqlashda S.A.Eberhart va W.A.Rassell usullari qo‘llanildi.

Dissertatsiyaning **“G. barbadense L. ingichka tolali g‘o‘za duragaylarida chigit tuklanish xili, rangi va xo‘jalik qimmatli belgilari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida ingichka tolali g‘o‘za duragaylarida xo‘jalik qimmatli belgilarni o‘zgaruvchanligi va ularni chigit tuklanish xili, rangi orasidagi bog‘likni o‘rganish bo‘yicha olingan ma’lumotlar keltirilgan.

2018-2019-yillarda Surxondaryo viloyatidagi “Surxon” tajriba xo‘jaligida T-52 tizmasini konkurs nav sinovidan o‘tkazilgan izlanishlarda olingan natijalar keltirilgan. O‘rganilgan tizmaning tola uzunligi 1,35-1,37 dyuym, mikroner ko‘rsatkichlari 4,1-4,2 ni tashkil etdi. O‘rganilgan tizma 40,4-41,9 g / k.teks uzilish kuchi ko‘rsatkichlari bilan ajralib turdi. Ikki yillik tadqiqot davomida hosildorlik ko‘rsatkichlari andoza navlarga nisbatan bir muncha yuqori bo‘ldi.

Dissertatsiyaning **“Toshkent va Surxondaryo viloyatlari sharoitida ingichka tolali g‘o‘zaning $F_4-F_5 (F_2 [F_4(F_8 (F_1 T-817 \times 010972) \times T-817) \times \text{Surxon-16}] \times (F_1 \text{Surxon-16} \times \text{Surxon-18}))$ duragay kombinatsiyasini o‘rganish”** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi qismida yangi donorlar va genetik man‘balar asosida

yaratilgan duragay kombinatsiyalardagi seleksion-qimmatli belgilarning donolarini aniqlash va transgressiv o'zgaruvchanlikdan maqsadli foydalanish maqsadida Toshkent viloyati sharoitida T-52 ingichka tolali g'o'zaning istiqbolli tizma va oilalari o'rganildi va o'tkazilgan izlanishlarda olingan natijalar keltirilgan.

T-52 tizmani Toshkent va Surxondaryo viloyatlari sharoitlarida o'rganish shuni ko'rsatdiki, birinchi xosil shoxining joylashishi balandligi yetishtirish sharoitiga qarab unchalik farq qilmaydi. Bitta o'simlikdagi xosil shoxlari va ko'saklar sonining eng yuqori ko'rsatkichlari Surxondaryo viloyati sharoitida kuzatildi. Surxondaryo viloyati sharoitida bitta ko'sakdagi paxta vazni ko'rsatkichlari pastroq bo'ldi. Tola chiqimi o'rtacha ko'rsatkichi 35,8-36,8% ni tashkil etdi va tola chiqimi o'zgaruvchanlik chegarasi yetishtirish sharoitiga qarab unchalik farq qilmadi. Tola uzunligi ko'rsatkichlari Toshkent viloyati sharoitida 43,6-43,9 mm bo'lganligi kuzatildi, bu belgining ko'rsatkichlari yetishtirish sharoitiga qarab o'zgaruvchanlik chegarasi sezilarli farqlarga ega bo'ldi.

O'rganilgan nav va tizma orasida bitta ko'sakdagi paxta vazni bo'yicha sezilarli ustunlik yo'qligi qayd etildi. Tola chiqimi bo'yicha eng past ko'rsatkichlar "Surxon-9" navida - 35,5 foizni, eng yuqori ko'rsatkich T-52 tizmada - 38,1 foizni tashkil etdi. 1000 dona chigit vazni belgining eng yuqori ko'rsatkichi "Surxon-9" navi va T-52 tizmasida kuzatildi. O'rganilgan navlar va tizmaning o'rtacha tola uzunligi ko'rsatkichlari sezilarli darajada farq qilmadi.

Dissertatsiyaning "***G. barbadense* L. F₅ duragaylarida chigit tuklanishi xili, rangi bilan qimmatli xo'jalik belgilari o'rtasidagi bog'liqliklar**" deb nomlangan uchinchi bobining ikkinchi qismida 2020 yilda Toshkent viloyatining vertitsillez vilt bilan tabiiy zararlangan ingichka tolali g'o'zaning F₅ [F₄(F₈(F₁ T-817 x 010972) x T-817) x Surxan-16] x (F₁ Surxan-16 x Surxan-18) duragay kombinatsiyasi bo'yicha olingan ma'lumatlarni taxlili keltirilgan. O'rganilgan o'simliklar chigit tuklanishi xili va rangi bo'yicha 6 guruhga bo'lindi: 1- mikropil qismida kulrang yoki yashil tuklanish va chigitlarda to'liq yashil tuklanishli; 2- tuksiz chigitlar, chigitlarning mikropil qismida kulrang va yashil rangdagi tuklanishli; 3- tuksiz chigitlar va kulrang tuklangan chigitlar; 4- kulrang tuklangan chigitlar va tuklanishi yashil bo'lgan chigitlar; 5- tuklanish chigitlarni mikropil qismida kulrang va yashil rangda; 6- chigitlari to'liq tuksiz yoki kulrang tukli. O'rganilgan duragay kombinatsiyaning 427 ta o'simligidan 33,0% birinchi, 29,0% ikkinchi, 3,1% uchinchi, 10,8% to'rtinchi, 20,1% beshinchi va 4,0% oltinchi guruhga tegishli bo'ldi. 3.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, G-1-3 guruhlaridagi o'simliklarning bitta ko'sakdagi paxta vazni G-4-6 guruhdagi o'simliklarnikiga nisbatan 0,2-0,3 g pastroq bo'ldi. G-4 va G-6 guruhlaridagi o'simliklar bitta ko'sakdagi paxta vazni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga 3,4 g ga ega bo'ldi. Ushbu belgi uchun eng keng o'zgaruvchanlik chegarasi G-2 va G-6 guruhlarida, (2,4-4,7 g orasida) kuzatildi. G-3 va G-4 guruhlarida gomeostatik ko'rsatkichlari 36-40 ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa guruhlarda bu ko'rsatkich 11 ga past bo'ldi. Ayniqsa tola chiqimi, ingichka tolali g'o'za uchun muhim xususiyatdir. O'rganilayotgan o'simliklar guruhlarida o'rtacha tola chiqimi 37,3-38,2% oralig'ida o'zgargan. G-1, G-2, G-4 guruhidagi o'simliklarda bu ko'rsatkich 38,0% ni tashkil etdi G-3, G-5, G-6 guruhlarida ko'rsatkichning 0,5-0,9% ga past bo'lganligi kuzatildi. Bu belgining o'zgaruvchanlik chegarasi G-1, G-2, G-3 o'simliklar guruhlarida 32,5-43,2% ni boshqa o'simliklar guruhlarida esa bir

muncha pastroq bo'lib 34,5-43,5% ni tashkil etdi. Bu belgining gomeostatik koeffitsienti ko'rsatkichlari G-3 o'simliklar guruhida eng yuqori bo'lib, 672-895 ni tashkil etdi. 1000 dona chigit vazni bo'yicha guruxlarning o'rtacha ko'rsatkichlari 110-114 g ga teng bo'ldi. G-3, 4, 6 o'simliklar guruhlari 1000 dona chigit vazni 3-4 g ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Bu belgining o'zgaruvchanlik chegarasi 88-143 g

1-jadval

Qimmatli xo'jalik belgilarning ko'rsatkichlari va o'simliklar guruhlarida chigitlarning tuklanish xili va rangiga bog'langan xolda korrelyatsiya koeffitsientlari (2020 y.)

Qimmatli xo'jalik belgilar	Guruxlar					
	G-1	G-2	G-3	G-4	G-5	G-6
Bitta ko'sakdagi paxta vazni, g	3,2±0,03	3,2±0,03	3,1±0,06	3,4±0,05	3,3±0,04	3,4±0,11
O'zgaruvchanligi chegarasi	2,2-4,0	2,4-4,5	2,6-3,5	2,4-4,0	2,6-4,3	2,7-4,7
Gomeostatik koeffitsienti	28	28	40	36	29	25
Tola chiqimi, %	38,0±0,15	38,2±0,19	37,4±0,42	38,0±0,31	38,0±0,19	37,7±0,48
O'zgaruvchanligi chegarasi	32,5-42,8	33,5-43,2	34,9-40,6	32,8-42,2	34,5-43,5	35,2-41,4
Gomeostatik koeffitsienti	768	672	895	687	785	710
1000 dona chigit vazni, g	110±0,68	110±0,78	113±2,58	114±1,58	110±0,96	113±2,76
O'zgaruvchanligi chegarasi	88-134	98-141	101-132	95-140	99-140	100-143
Gomeostatik koeffitsienti	1492	1396	1374	1207	1351	1120
Tola indeksi	6,69±0,04	6,81±0,06	6,73±0,12	6,93±0,10	6,76±0,07	6,81±0,15
O'zgaruvchanligi chegarasi	5,45-8,58	5,64-9,08	5,99-7,6	5,71-8,65	5,36-9,42	5,72-7,76
Gomeostatik koeffitsienti	85	65	103	69	73	75
Tola uzunligi, mm	40,2±0,08	40,3±0,09	40,0±0,32	40,3±0,15	40,3±0,11	40,3±0,21
O'zgaruvchanligi chegarasi	37,6-43,4	38,0-43,0	38,0-43,0	38,0-43,2	38,4-43,4	38,0-41,6
Gomeostatik koeffitsienti	1555	1492	1356	1506	1676	1843
	Korrelyatsiya koeffitsienti					
Bitta ko'sakdagi paxta vazni – Tola chiqimi	-0,15	-0,02	-0,03	0,17	0,16	0,11
Bitta ko'sakdagi paxta vazni – 1000 dona chigit vazni	0,46	0,35	0,14	0,34	0,39	0,29
Bitta ko'sakdagi paxta vazni – Tola uzunligi	0,09	-0,02	-0,02	0,07	0,05	0,36
Tola chiqimi -1000 dona chigit vazni	-0,45	-0,28	-0,61	-0,39	-0,11	-0,5
Tola chiqimi-Tola uzunligi	-0,13	-0,28	-0,33	-0,28	-0,11	0,07
1000 dona chigit vazni-Tola uzunligi	0,13	-0,33	0,01	0,04	-0,06	0,24

ni tashkil etdi. G-4 va G-6 o'simliklar guruhlarida 1207 va 1120 ga teng bo'lgan past gomeostatik koeffitsient kuzatildi. Boshqa o'simlik guruhlarida bu belgining gomeostatik koeffitsienti 1492 – 1396 ni tashkil kildi.

O'rtacha tola indeksi qiymatlari o'simlik guruhleri bo'yicha 6,69-6,93 ni o'zgaruvchanlik chegarasi 5,36-9,42 ni tashkil etdi. Tola indeksi qiymatlarining eng keng o'zgaruvchanlik chegarasi G-2 va G-5 o'simliklar guruhlarida kuzatildi. Gomeostatik koeffitsienti qiymatlari G-1 va G-3 guruhlarida eng yuqori bo'lib 85 va 103 ni tashkil kildi.

O'rganilgan o'simlik guruhlarida tola uzunligi ko'rsatkichlari sezilarli darajada farq qilmadi va 40,0-40,3 mm ni tashkil etdi. Tola uzunligi o'zgaruvchanligi chegarasi o'rganilgan o'simlik guruhleri bo'yicha 37,6-43,4 mm, gomeostatik koeffitsienti ko'rsatkichlari 1492-1843 oralig'ida bo'lganligi kuzatildi. Gomeostatik koeffitsientning eng yuqori qiymatlari G-5 va G-6 o'simliklar guruhlarida qayd etildi.

Olingan natijalarga asoslanib, chigit tuklanish xili va rangi asosiy qimmatli xo'jalik belgilar ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi degan xulosaga kelish mumkin. Ba'zi belgilar o'rtasida kuchsiz korrelyatsiya kuzatildi. Tuklanish xili va rangi belgilardan marker sifatida foydalanish mumkin. O'rganilgan o'simliklarning ko'p qismi, qaysi guruhligidan qat'iy nazar, bitta ko'sakdagi paxta vazni 2,8-3,1 g va 3,2-3,5 g bo'lgan o'simliklar sinfida joylashdi. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,6-3,9 g bo'lgan sinfda o'simlik guruhlariga bog'liq xolda xar bir guruhdagi o'simliklarning umumiy sonidan 8,1-25,4% o'simliklar o'rin oldi. Bunday ko'rsatkichlarga ega bo'lgan o'simliklarning eng ko'p soni G-4 va G-5 guruhlarda qayd etildi. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 4,0-4,3 g bo'lgan sinfdagi eng ko'p o'simliklar G-2, G-5 va G-6 guruhlarda kuzatildi.

O'rganilgan guruhlardagi o'simliklarning ko'pchiligi tola chiqimi ko'rsatkichlari 36,0-37,9% va 38,0-39,9% bo'lgan sinflarda joylashdi. Shuningdek, tola chiqimi 34,0-35,9% bo'lgan sinfda ko'plab o'simliklar qayd etildi, eng yuqori ko'rsatkichlar G-3, G-4 va G-6 guruhlarida aniqlandi. Tola chiqimi 38,0-39,9% bo'lgan sinfida eng ko'p o'simliklar G-1, G-4 va G-5 guruhlarida kuzatildi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, barcha guruhlarda tola chiqimi 40,0-41,9% bo'lgan sinfga mansub o'simliklar uchradi.

O'rganilgan guruhlardagi ko'pchilik o'simliklar 1000 dona chigit vazni 96-102 g, 103-109 g, 110-116 g va 117-123 g bo'lgan sinflarda joylashdi. 1000 dona chigit vazni 110-116 g bo'lgan sinfda ko'pchilik guruhlardagi o'simliklar soni 23,1-24,2% ni va faqat G-1 guruhda bunday ko'rsatkichlarga ega o'simliklar soni 32,4% ni tashkil etdi.

O'rganilgan guruhlardagi ko'pchilik o'simliklar tola uzunligi 39,0-39,9 mm va 40,0-40,9 mm bo'lgan sinflarda joylashdi. Tola uzunligi 41,0-41,9 mm bo'lgan sinfda G-1, G-2 va G-5 guruhlardagi o'simliklar soni 14,5-17,6%, G-4 va G-5 guruhlardagi o'simliklar soni 26,1-35,3% ni tashkil etdi. Barcha guruhlarda o'rganilgan o'simliklarning umumiy sonidan 7,5% o'simliklarning tola uzunligi 42,0-43,9 mm ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **“G‘o‘zada chigit tuklanish hili va tuk rangining qimmatli xo‘jalik belgilari bilan o‘zaro bog‘liqlik nisbatlari”** deb nomlangan uchinchi bobining uchinchi qismida keltirilgan ma'lumotlardan bitta ko'sakdagi paxta vazni

3,2-3,5 g bo'lgan sinfda eng ko'p o'simliklar G-1 va G-4 guruhlarida ifodalangan. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,2-3,5 g, tola chiqimi 36,0-37,9% bo'lgan sinfda eng ko'p o'simliklar G-3, G-4 va G-5 guruhlarida 40,0-50,0% o'simliklarni tashkil etdi. Tola chiqimi 38,0-39,9% bo'lgan sinfda biroz boshqacha holat kuzatildi. Bu sinfda G-1, G-3 va G-5 guruhlarida o'simliklarning 40,7-50,0%i joylashgan, G-4 va G-6 guruhlarida o'simliklari 16,6-20,0% ni tashkil qiladi. G-3 guruhida tola chiqimi 40,0% dan yuqori bo'lgan o'simliklar kuzatilmagan bo'lsa, G-2 va G-6 guruhlarida tola chiqimi 40,0-41,9% bo'lgan o'simliklar soni guruhlarida eng ko'p bo'lib, 6,9-23,9% ni tashkil etdi. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,6-3,9 g, tola chiqimi 36,0-37,9% bo'lgan sinfda mansub eng ko'p o'simliklar G-1, G-3 va G-5 guruhlarida (41,2-50,0%) kuzatildi. Tola chiqimi bo'yicha aksariyat sinflarda G-6 guruhga ta'luqli o'simliklar qayd etilmagan. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,6-3,9 g, tola chiqimi 38,0-39,9% bo'lgan sinfda eng ko'p o'simliklar G-4 guruhida (61,5%), eng kam G-1 G-5 guruhlarida (29,2-29,4%) qayd etildi. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 4,0 g dan yuqori bo'lgan sinfda joylashgan o'simliklar kam sonli bo'lgani qayd etildi.

Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,2-3,5 g, 1000 dona chigit vazni 103-109 g bo'lgan sinfda joylashgan o'simliklar soni bo'yicha ko'pchilik guruhlarida sezilarli farq kuzatilmadi va ularni qiymati 29,3-37,0% oralig'ida bo'ldi. Xuddi shunday holat bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,2-3,5 g, 1000 dona chigit vazni 110-116 g va 117-123 g bo'lgan sinflarda ham kuzatildi. 1000 dona chigit vazni 110-116 g bo'lgan sinfda joylashgan o'simliklar soni 19,6-39,6% ni tashkil etdi, G-3 va G-6 guruhlarida bu sinfda o'simliklar qayd etilmadi.

Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,6-3,9 g bo'lgan sinfdagi ko'pchilik o'simliklar 1000 dona chigit vazni bo'yicha 110-116 g va 117-123 g bo'lgan sinflarda joylashdi. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,6 g dan, 1000 dona chigit vazni 110 g dan yuqori bo'lgan sinfda umumiy o'rganilgan o'simliklarning 15,7 % i joylashdi, eng ko'p o'simliklar G-1 guruhida -4,7% , G-2, G-4 va G-5 guruhlarida -2,3-2,6% aniqlandi. O'simliklarning 2,8% i bitta ko'sakdagi paxta vazni 4,0 g dan, 1000 dona chigit vazni 110 g dan yuqori bo'lgan sinflarda joylashdi.

Tola uzunligi 40,0-40,9 mm bo'lgan sinfda joylashgan o'simliklar soni o'rganilgan guruhlarining aksariyatida 40,0-50,0% ni, faqat G-1 guruhida 34,4% ni tashkil etganligi aniqlandi. Aksariyat guruhlarida tola uzunligi 41,0-41,9 mm bo'lgan sinfda joylashgan o'simliklar soni 18,5-33,4% ni, G-2 guruhida atigi 10,8% tashkil etgan bo'lsa G-3 guruhida bu sinfda o'simliklar butunlay uchramaganligi aniqlandi. Tola uzunligi 42,0-42,9 mm va 43,0-43,9 mm bo'lgan sinflarda o'rganilgan guruhlarida o'simliklar soni juda kam bo'lganligini va G-3 va G-6 guruhlarida o'simliklar kuzatilmaganligini aniqlandi. Bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,6-3,9 g bo'lgan sinfda bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,2-3,5 g bo'lgan sinfga nisbatan kamroq o'simliklar mavjud bo'lib, bu sinfda kiruvchi o'simliklarning salmoqli qismida tola uzunligi 40,0-40,9 mm va 41,0-41,9 mm bo'lganligi aniqlandi. Shunday qilib, tola uzunligi 40,0-40,9 mm bo'lgan sinfda o'simliklarning eng ko'p soni G-1 va G-3 guruhlarida (45,8-100%), kuzatilgan bo'lsa boshqa guruhlarida bu ko'rsatkich 17,6-30,7% ni tashkil etdi. Tola uzunligi 41,0-41,9 mm bo'lgan sinfda bir oz kamroq o'simliklar joylashdi. Bu sinfda joylashgan o'simliklar soni, guruhlariga qarab, G-3 guruhdan tashqari 16,6-38,5% ni tashkil etdi. Tola uzunligi 42,0-42,9 mm va 43,0-

43,9 mm bo'lgan sinflarda kam o'simliklar joylashganligi aniqlandi. Xuddi shunday holat bitta ko'sakdagi paxta vazni 4,0-4,3 g va 4,4-4,7 g bo'lgan sinflarda ham kuzatildi.

Tola chiqimi 34,0-35,9% bo'lgan sinfdagi o'simliklarning aksariyati tola uzunligi 40,0-40,9 mm va 41,0-41,9 mm bo'lgan sinflarda joylashganligi aniqlandi. Aksariyat guruhlarda tola uzunligi 40,0-40,9 mm bo'lgan sinfdagi joylashgan o'simliklar soni 40,0-50,0%, tola uzunligi 41,0-41,9 mm bo'lgan sinfdagi esa 20,0-37,5% ni tashkil etdi. G-3 guruhda bunday ko'rsatkichli o'simliklar qayd etilmadi.

Tola chiqimi 36,0-37,9% bo'lgan sinfdagi o'simliklarning ko'p qismi tola uzunligi 39,0-39,9 mm, 40,0-41,9 mm va 41,0-41,9 mm bo'lgan sinflarda joylashgan. Tola uzunligi 39,0-39,9 mm bo'lgan sinfdagi joylashgan o'simliklarning eng ko'p soni G-2, G-3 va G-5 guruhlarida (24,4-33,3%), aniqlandi G-6 guruhda bu ko'rsatkichli o'simliklar kuzatilmadi. Tola uzunligi 40,0-40,9 mm bo'lgan sinfdagi o'simliklarning aksariyati joylashdi va eng ko'p o'simliklar G-1, G-2, G-4 va G-5 guruhlarida qayd etildi (44,0-53,8%). Tola uzunligi 41,0-41,9 mm bo'lgan sinfdagi joylashgan o'simliklarning ko'pchiligi G-4, G-5 va G-6 guruhlarida kuzatildi va ularni soni 21,9-25,0% ni tashkil etdi. Tola uzunligi 40,0-40,9 mm bo'lgan sinfdagi joylashgan o'simliklarning soni G-4 va G-5 guruhidagi 22,2-25,0% ni, boshqa guruhlarda esa 33,3-75,0% tashkil etdi. G-4 va G-6 guruhlaridagi eng ko'p o'simliklar tola uzunligi 41,0-41,9 mm bo'lgan sinfdagi joylashdi va ular soni 12,5-27,8% ga teng bo'ldi. Tola chiqimi 40,0-41,9% bo'lgan sinfdagi o'simliklarning asosiy qismi tola uzunligi 39,0-39,9 mm va 40,0-40,9 mm bo'lgan sinflarda joylashganligi kuzatildi. Tola chiqimi 38,0-39,9% va tola uzunligi 40,0 mm dan yuqori bo'lgan sinfdagi o'rganilgan o'simliklar umumiy sonining 20,1% ni o'z ichiga oldi. Ulardan 8,4% o'simliklar G-1 guruhiga, 5,4% G-2 guruhga, 0,7% dan 2,8% gachasi qolgan guruhlariga tegishli bo'ldi. Tola chiqimi 40,0-41,9% va tola uzunligi 40,0 mm dan yuqori bo'lgan sinfdagi o'rganilgan o'simliklar umumiy sonining 6,3% ni o'z ichiga oldi.

Dissertatsiyaning **“Ekilgan chigitlarni tuklanish xili va rangi bo'yicha ajratilgan gurux o'simliklarni qimmatli xo'jalik belgilarning tavsifi, belgilar orasidagi korrelyatsiya ko'rsatkichlari va bog'liqliklar”** deb nomlangan uchinchi bobi to'rtinchi qismida 2021-yilda F₆ duragay kombinatsiya: 1- mikropile qismida kul rang tuklanish va tuksiz chigitlar; 2-guruhga qisman yashil tuklar bo'lgan chigitlar; 3-guruhga mikropil qismida juda kam yashil tuklar bor chigitlar 3 guruh o'simliklar bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirilgan. 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 1-guruh o'simliklarining bitta ko'sakdagi paxta vazni 3,1 g ni tashkil etdi, bu 2-guruh ko'rsatkichlaridan 0,2 g va 3-guruh ko'rsatkichlaridan 0,5 g past bo'lganligini ko'rsatdi. Bu belgining o'zgaruvchanlik chegarasi guruhlarda 1,9-4,8 oralig'ida bo'ldi. O'rganilgan guruhlarda tola chiqimi ko'rsatkichlari sezilarli darajada farq qilmadi va 39,3-39,4% ni tashkil etdi. Ushbu belgining o'zgaruvchanlik chegarasi o'rganilgan guruhlariga bog'liq xolda 33,3-46,2% oralig'idatashkil etdi. 1-guruhda tola uzunligi ko'rsatkichi 41,8 mm, 2-guruhda 41,2 mm, 3-guruh o'simliklarida 1 va 2-guruhlariga nisbatan 2,9-2,4 mm ga past bo'lib, 39,9 mm ni tashkil etdi. Eng keng o'zgaruvchanlik chegarasi (37,2-46,0 mm) 1 va 2 guruh o'simliklarida qayd etildi. 1-guruh o'simliklarida bitta ko'sakdagi paxta vazni va tola chiqimi o'rtasida salbiy ahamiyatsiz bog'liqlik, 2 va 3-guruh o'simliklarida esa

kuchsiz darajadagi sezilarli ijobiy bog‘liqlik qayd etildi. Bitta ko‘sakdagi paxta vazni, tola chiqimi, 1000 dona chigit vazni, tola uzunligi kuchli bog‘liqlikka ega. Bitta ko‘sakdagi paxta vazni va 1000 dona chigit vazni o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik borligi qayd etildi. Bu yerda 1-guruh o‘simliklarida o‘rtacha ijobiy 2 va 3-guruhlarda kuchsiz ijobiy munosabatlar kuzatildi. O‘rganilgan o‘simlik guruhlarida bitta ko‘sakdagi paxta vazni bilan tola uzunligi belgilari o‘rtasida 1-guruh o‘simliklarida ishonarli bo‘lmagan ijobiy bog‘liqlik, 2 va 3-guruh o‘simliklarida esa kuchsiz ijobiy bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi. 2-guruh o‘simliklarida tuklanish xili va rangi - tolaning chiqimi va tuklanish xili va rangi - 1000 dona chigit vazni o‘rtasida kuchsiz darajadagi ishonchli salbiy -0,12 va ijobiy 0,13 bog‘liqliklar aniqlandi. Shuningdek, 1-guruh o‘simliklarida tuklanish xili va rangi - tola indeksi belgilari o‘rtasida 0,11 kuchsiz ijobiy korrelyatsiya qayd etildi.

2-jadval

F₆ (F₂ [F₄(F₈ (F₁ T-817 x 010972) x T-817) x Surxon-16] x (F₁ Surxon-16 x Surxon-18) duragay kombinatsiyasining qimmatli xo‘jalik belgilari va korrelyatsiya koeffitsientlari ko‘rsatkichlari (2021y.)

Qimmatli xo‘jalik belgilari	G-1	G-2	G-3
Bitta ko‘sakdagi paxta vazni, g	3,1 \pm 0,03	3,3 \pm 0,03	3,6 \pm 0,04
O‘zgaruvchanlik chegarasi	1,9-4,8	2,1-4,8	2,3-4,8
Gomeostatik koeffitsient	23	18	18
Tola chiqimi, %	39,4 \pm 0,12	39,3 \pm 0,11	39,3 \pm 0,11
O‘zgaruvchanlik chegarasi	34,0-45,7	33,7-46,2	33,3-44,9
Gomeostatik koeffitsient	761	784	803
1000 dona chigit vazni, g	105 \pm 0,62	105 \pm 0,51	103 \pm 0,57
O‘zgaruvchanlik chegarasi	80-139	81-141	88-132
Gomeostatik koeffitsient	667	1144	1062
Tola indeksi	6,79 \pm 0,04	6,78 \pm 0,04	6,64 \pm 0,04
O‘zgaruvchanlik chegarasi	5,23-9,32	4,85-9,42	4,95-8,72
Gomeostatik koeffitsient	70	68	59
Tola uzunligi, mm	41,8 \pm 0,10	41,2 \pm 0,08	39,9 \pm 0,09
O‘zgaruvchanlik chegarasi	37,4-45,9	37,2-46,0	37,2-44,9
Gomeostatik koeffitsient	1106	1133	988
Korrelyatsiya koeffitsienti			
Bitta ko‘sakdagi paxta vazni - tola chiqimi	-0,01	0,12	0,11
Bitta ko‘sakdagi paxta vazni - 1000 dona chigit vazni	0,41	0,19	0,14
Bitta ko‘sakdagi paxta vazni - tola indeksi	0,40	0,28	0,18
Bitta ko‘sakdagi paxta vazni - tola uzunligi	0,09	0,16	0,13
Tola chiqimi-1000 dona chigit vazni	-0,44	-0,34	-0,21
Tola chiqimi-tola indeksi	0,45	0,52	0,52
Tola chiqimi-tola uzunligi	-0,18	-0,11	-0,19
1000 dona chigit vazni-tola indeksi	0,59	0,60	0,71
1000 dona chigit vazni-tola uzunligi	0,25	0,11	0,12
Tola indeksi-tola uzunligi	0,06	-0,01	-0,03
Tuklanish xili va rangi – bitta ko‘sakdagi paxta vazni	0,03	0,08	0,02
Tuklanish xili va rangi – tola chiqimi	0,03	-0,12	-0,003
Tuklanish xili va rangi – 1000 dona chigit vazni	0,08	0,13	-0,02
Tuklanish xili va rangi – tola indeksi	0,11	0,03	-0,007
